ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-96-107

OGAHIY TARIXIY ASARLARIDA UMUMERONIY O‘ZLASHMALAR

Raufjon Baxodirovich Maxmudov
Xorazm Ma’mun akademiyasi katta ilmiy xodimi
raufjon.m@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Ogahiy tarixiy asarlaridagi umumeroniy qatlamga oid o‘zlashmalar tadqiq va tahlil qilingan. Ularning tarqalish areali aniqlashtirilgan hamda ma’no taraqqiyoti, fonetik o‘zgarishlari o‘rganilgan. Umumeroniy o‘zlashmalar qaysi davrda o‘zlashgani, qanday so‘zlarning yasalishiga asos bo‘lgani ilmiy dalillar orqali isbotlangan.

Kalit so‘zlar: o‘zlashma, umumeroniy qatlam, tarixiy asar, substrat qatlam, o‘z qatlam, genetik tahlil, tarkibiy tahlil.

ABSTRACT

This article examines and analyzes the common Iranian layer of Agahi's historical works. Their range has been determined, and semantic development and phonetic changes have been studied. It has been scientifically proven that in all periods, common Iranian layers were mastered and that words were the basis for their formation.

Keywords: borrowing, common Iranian layer, historical work, substrate layer, own layer, genetic analysis, structural analysis.

KIRISH

Umueroniy so‘zlar bu tarixan kelib chiqishi qadimgi eroniy tillarga borib taqaladigan yoki umumeroniy asosli so‘zlardir. Umumeroniy tillarning dastlabki bo‘g‘ini bu indoyevropa tilidir. Uni jahon tilshunosligida oriydan oldingi bosqich deb qaraladi. Indoyevropa tili bu barcha eroniy tillarning asosi, bobo tilidir. Shu nuqtayi nazardan qaysi so‘zning genezisi ushbu tilga bog‘lansa, demak, biz ushbu so‘zni umumeroriy so‘z deb qarashimiz mumkin. Chunki tahlil qilinayotgan indoyevropadagi ma’lum asos, fonetik o‘zgarish va ayrim ma’no taraqqiyotini bosib o‘tgan holda barcha eroniy tillarda hozir ham yashab kelayotgan bo‘ladi. Bu o‘sha asosning bugungi kunda so‘z yoki komponent holida yashab kelayotganiga jiddiy e’tiborimizni qaratish lozim ekanligini bildirmaydi. Muhimi ushbu asos mavjud va u hamon

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-96-107

iste'molda. Shu mezon asosida biz Ogahiy tarixiy asarlarinidagi umumeroniy qatlamga oid so'zlashning ayrimlarini geniologik jihatdan o'rganishga harakat qildik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ogahiy tarixiy asarlarida tarixan umumeroniy leksik qatlamga oid o'zlashmalar anchagina. Shu nuqtayi nazardan ushbu kichik tadqiqotimizda Ogahiy tarixiy asarlarida uchraydigan bir qancha umumeroniy qatlamga oid birliklarni tahlil qildik.

Angusht. Barmoq. Eski o'zbek tiliga fors tili orqali kirib kelgan o'zlashmalardan biri. Hozirgi o'zbek adabiy tili lug'atida nofaol qatlam sifatida yashab kelmoqda. Eroniylashgan ayrim o'zbek shevalarida istifoda etiladi. O'zbek adabiy tilida keng qo'llanuvchi forsiy o'zlashma bo'lgan *angishvona* so'zining yasalishiga asos vazifasini o'tagan. *Angusht* Ogahiy tarixiy asarlarida birmuncha keng qo'llanadi. Xususan, "Riyozu-d-davla"da o'qiymiz: *Chun ul hazrat nigini saltanatni* ***angusht****i iqtidorig'a soldi va zimomi mamlakatni qabzayi ixtiyorig'a oldi*[1]. Qolaversa, Ogahiy tarixiy asarlarida *angushtnamo – nodir, kamyob, angushtar – uzuk, angushtarmoq – e'tibor bilan qaramoq* kabi so'zlar uchraydiki, ular paydo bo'lishida ham tahlil qilinayotgan *angusht* asos bo'lganligi shubhasiz.

Ushbu so'zni geniologik tahlil qilganimizda, uni umumeroniy qatlamga mansub ekanligi ma'lum bo'ldi. Chunonchi, pahlaviyda *angust* so'zi qo'llangan bo'lib, barmoq ma'nosini anglatgan. Bir necha eroniy sheva va tillarda bu so'z keng qo'llanadi. Xususan, giylakiyda *ängusht,* farizandiy, shahmirzodiyda *angosht,* natanziyda *ongosht* yoki *ängosht,* samnoniyda *ängusht*, sangsariy va losgardiyda *ängósht,* so'rxiyda *aengósht,* uromoniyda *än(g)us* shaklida[2] qo'llanadi va barmoq ma'nosida istifoda etiladi. Qadimgi oriyda *anguli, anguri* so'zlari qo'llangan bo'lib, ular *qayrilish, bo'g'in, barmoq* ma'nolarini ifodalagan. Qadimgi hindiy tilida *ágga – bo'g'in* ma'nosini anglatgan. *Aŋgúli* yoki *aŋgúr* vedalarda *oyoq* yoki *qo'l barmoqlari* ma'nosini ifodalaydi. Ushbu so'zning genezisi indoyevropadagi *anguli* so'ziga borib taqaladi. Indoyevropa tilida *ang(u)-* so'zi qo'llangan bo'lib, u *bo'g'in, burchak* ma'nolarida istifoda etilgan. Ushbu so'z *ang* o'zagi asosida hosil qilingan. Ushbu o'zak *bukilish, qayrilish* ma'nolarini ifodalagan. O'rta lotin tilidagi *angulüs*[3], cherkov slavyanidagi *ǫg(ь)iь,* rus tilidagi *угол,* ingliz tilidagi *ankle*[4], qadimgi norveg tilidagi

[1]Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Asarlar. IV jild. Riyozu-d-davla. Nashrga tayyorlovchi A.O'rozboyev. Toshkent: 2020. – B. 38.
[2] شمس الدين محمد بن خلف تبريزى . برهان قاطع. با اهتمام دكتر محمد معين. تهران. امير كبير. ١٣٨٦ . در جلد اوّل ص. ١٧٥ .
[3]Pokomy J. Indogermanisches etymologisches Wörterbuch. Bern, 1959. –P. 45-47.
[4]Mayrhofer M. Kurzgefaßtes etymologisches Wörterbuchdes Altindischen. Heidelberg, 1953-1975. –P. 21-22.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-96-107

oyoq bo‘ginlari ma’nosidagi *ọkkla*[1] so‘zini ayni o‘zak asosida paydo bo‘lganligi shubhasiz. Demak, ushbu so‘zning tarqalish areali juda keng.

Yuqorida ta’kidlanganidek, bu so‘z bugungi kunda eroniy tillarda keng qo‘llanadi. Lekin *angušta*, *angušti*ning *bo‘g‘in, burchak, bukilish* ma’nolari bugun eroniy tillarda arxaiklashgan. Qo‘l yoki oyoq barmoqlari ma’nosi ayni damda faollashgan. Buni *angushtar – uzuk* yoki *angishvona* so‘zlarida ham kuzatish mumkin. Albatta, bu ma’no ham oriy va indoyevropadagi *ang(u)*- asosi negizida paydo bo‘lgan. Chunki ushbu asosning bosh barmoq ma’nosi ham mavjud bo‘lib, ayni shu ma’no bugun eroniy tillardagi *angusht, angushtar* va *angishvona* so‘zlari paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Ushbu so‘zni sharqiy va markaziy eroniy til guruh(dialekt)larida ham faol qo‘llanishini kuzatdik. Chunonchi, sedeyda qo‘llanuvchi *enguliy*, gaziy va kafroniydagi *enguli*[2], zafreiydagi *ungült, engüli*[3], balujiydagi *angul*[4] - *barmoq,* mozandaroniydagi *engel,* osetin tilidagi *barmoq* ma’nosidagi *æng’ylʒ* yoki *ængulʒæ,* yoki V.I.Abayev ta’kidi bo‘yicha *angur/l(i)-ti* yohud *angur-ti – barmoq*[5] so‘zlari ham biz tahlil qilayotgan *ang(u)*- asosi negizida paydo bo‘lgan degan xulosa mantiqan to‘g‘ri. Bundan tashqari biz vaxandagi *yanglek* - *barmoq*[6], varxniydagi *yangl*[7], o‘rta xotansaksdagi *hamgari – tana a’zosi* ma’nosidagi so‘zlarni ham tahlil qilinayotgan *ang*- yoki *ank*[8] *– egilmoq, egiluvchan* asosi bilan bog‘lashimiz mumkin.

Ayni *ang*- yoki *anka* asosi *angušta – barmoq*[9] avestizmida ham mavjud. Bu so‘z o‘rta fors tilida *angušt* yoki *ngwst* shaklida qo‘llangan va *barmoq*[10] ma’nosini ifodalagan. Klassik fors tili va tojik tilida bu so‘z *angušt* shaklida, dariyda *angošt*, hozirgi fors tilida *ängošt,* baqtriyda *angust*[11] shaklida qo‘llanadi va *barmoq* ma’nosini ifodalaydi. So‘g‘diy tili va moniylik matnlarida uchraydigan ‘*ngwšt*[12], buddaviylik matnlarida biz duch kelgan *‘nkwšt, ‘nk(')wšt – barmoq*[13], yag‘nob tilidagi tojik tilidan o‘zlashgan *unkušt – barmoq*[14] so‘zlarini, pushtu tilidagi *gúta, gwəta, gwúta*[15] –

[1]Mayrhofer M. Etymologisches Wörterbuchdes Altindoarischen. Heidelberg, 1986. –P. 48-49.
[2]Жуковский В.А. Материалы для изучения персидских наречий. Ч. II, вып. 1-2. Пг., 1922. –С. 110.
[3]Жуковский В.А. Материалы для изучения персидских наречий. Ч. I. СПб., 1888. –С. 63.
[4]Morgenstierne G. Noteson Balochi Etymology. — NTS. 1932, Bd. V. –P. 40.
[5]Абаев В.И. Историко-этимологический словарь осетинского языка. Т. I. М. – Л., 1958. –С. 161.
[6]Стеблин-Каменский И.М. Историческая фонетика ваханского языка. КД. Л., 1971. –С. 50, 223.
[7]Стеблин-Каменский И.М. Этимологический словарь ваханского языка. СПб., 1999. –С. 421.
[8]Bailey H.W. Dictionary of Khotan Saka. Cambridge-London-New York-Melbourne, 1979. –P. 440.
[9]Bartholomae Chr. Altiranisches Werterbuch. Strassburg, 1904 (repr.: Berlin-NewYork, 1979). –P. 130-131.
[10]MacKenzie D.N. A Concise Pahlavi Dictionary. L., 1971. –P. 10.
[11]Жуковский В.А. Материалы для изучения персидских наречий. Ч. III. Пг., 1922. –С.
[12]Gershevitch I.A. Grammar of Manichean Sogdian. Oxf., 1954. –P. 12, 40.
[13]MacKenzie D.N. The Buddhist Sogdian Texts of the British Library. Téhéran-Liège, 1976 (Acta Iranica,10). –P.81.
[14]Хромов А.Л. Ягнобский язык. — ОИЯ. Новоиранские языки. Восточная группа. М., 1987. –С. 395.
[15]Расторгуева В.С., Эдельман Д.И. Этимологический словарь иранских языков. Том I. М. Восточная литература. 2003. – С. 168.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-96-107

barmoq, bosh barmoq ma'nosidagi so'zlarni ham umumeroniy *aŋgusthá* – barmoq, bosh barmoq, bo'g'in, egilmoq, so'zi bilan bog'lash mumkin va u indoyevropadagi *ang* o'zagi asosida paydo bo'lgan.

Zamona. Vaqt, payt, muddat, mahal. Eski o'zbek tiliga fors tilidan o'zlashgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida birmuncha keng qo'llanadi va *zamonaviy, zamonasoz* kabi so'zlarning yasalishiga asos vazifasini o'taydi[1]. Ushbu so'z ham biz tahlil qilayotgan umumeroniy o'zlashmalar qatorida Ogahiy tarixiy asarlarida keng qo'llangan. Xususan, "Riyozu-d-davla"da o'qiymiz: *Anda dag'i ulamoyi zamona va fuzaloyi yagona va umaroyi davlatnishona bila majlis tuzub, kitobxonliq va ma'nidonlig' bahs-u jadal va radd-u badal rusumin avvalg'idin ziyodaroq zuhurg'a yetkurdilar*[2].

Ushbu so'zning genezini tahlil qilish jarayonida quyidagi ilmiy xulosalarga keldik: ushbu so'z indoyevropadagi *g^{w}m – harakatlanmoq, yurmoq, o'tib ketmoq* ma'nosidagi o'zak asosida hosil qilingan va umumeroniy tillarda keng qo'llanadi. Aytish mumkinki, *zamona* so'zi *g^{w}m* o'zagining ma'no kengayishi asosida yuzaga kelgan. Agar *zamona* so'zining tarkibiy tahlili shuni tasdiqlaydiki, *g^{w}m* o'zagi asosida *gàma-, gama-* so'zi hozil qilingan va u *vaqt, vaqt oralig'i, daqiqa, soat* ma'nolarini ifodalagan. Agar *g^{w}m* o'zagining *yurmoq, o'tmoq, harakat, qadam* ma'nolarini vaqtga qiyoslasak, mantiqan vaqtning ham o'tkinchi va doimo hararakatda ekanlik ma'nosi *g^{w}m* o'zagi asosida paydo bo'lganligi oydinlashadi. Xuddi shu asosdan o'rta fors tilida keng iste'molda bo'lgan *ǰamāna*[3] *– vaqt* so'zi hosil qilingan. Keyinchalik *y-z* fonetik qoidasi asosida *ǰamāna* so'zi *zamāna*[4] tarzida qo'llana boshlangan. Xususan, so'nggi davr fors tilidagi *ym'n – zm'n*[5] *– vaqt*, klassik fors tilidagi *zamān,* dariydagi *zamân*, zamonaviy fors tilidagi *zämān*, tojik tilidagi *zamon*, baqtriydagi *zemün – vaqt, davr* so'zlari ham ayni umumeroniy *g^{w}m* o'zagi asosida paydo bo'lgan.

Bu o'zakning tarqalish areali juda keng. Xususan, parfiyon tilida *žamān {ǰm'n}* – vaqt, daqiqa, xristian so'g'diy tilidagi *žwmn-// žmnw* so'zlari ham umumeroniy *ǰamanam*[6] asosida, qolaversa, buddaviy so'g'diydagi *zmn* (ko'pligi *zmnth*) va *'zmnw* monaviy so'g'diydagi *ǰmn, ǰmnw,* xotansaksdagi *jāmana*[7] *– vaqt, soat*, shuningdek,

[1]O'zbek tilining izohli lug'ati. II tom. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006. –B. 129.
[2]Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Asarlar. IV jild. Riyozu-d-davla. Nashrga tayyorlovchi A.O'rozboyev. Toshkent: 2020. – B. 139.
[3]Nyberg H.A. Manual of Pahlavi. Pt2. Glossar. Wiesbaden, 1974. –P. 228.
[4]MacKenzie D.N. A Concise Pahlavi Dictionary. L., 1971. –P. 98.
[5]Boyce M.A. Word-list of Manichaean Persian and Parthian. Téhéran-Liège, 1977 (Acta Iranica, sér. 3, vol. 2, Suppl.). – P. 104.
[6]Sims-Williams N. Eastern Middle Iranian (p.165-172), Sogdian (p.173-192), Bactrian (p.230-235). CLI. Wiesbaden, 1989. –P. 181.
[7]Bailey H.W. Dictionary of Khotan Saka. Cambridge-London-New York-Melbourne, 1979. –P. 110.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-96-107

monaviy so‘g‘diyda *ǰmnčyq – zamonaviy* sifati ham biz tahlil qilayotgan yoki *ǰmn*[1]*<gʷm* asosida yuzaga kelgan.

Ushbu o‘rinda yana bir faktni alohida ta’kidlash joiz, umumeroniy tillarda qo‘llanuvchi *shu vaqt, vaqt parchasi* ma’nosidagi *hangām* so‘zi ayni biz tahlil qilayotgan indoyevropa tilidagi *gʷm* asosi bilan bog‘liq. Chunki pahlaviyda *â-gâma(n),han-gâma(n)-* so‘zi birikmasi qo‘llangan bo‘lib, u ayni *vaqt parchasi,* daqiqa ma’nosini ifodalagan. Biz uni bemalol *gâ* yoki *gam* (*gʷm*) bilan bog‘lashimiz mumkin. Ayni damda shu tahlildan xulosa qilish mumkinki, hozirgi o‘zbek tilida keng qo‘llanuvchi *hangoma* so‘zi ham *vaqt parchasi* ma’nosidan o‘sib chiqqan. Ko‘rinib turganidek, buning barchasi harakatlanmoq, qadan, o‘tkinchi kabi ma’nolarni ifodalagan *gʷm* o‘zagining ma’no taraqqiyoti natijasidir. Klassik fors tilida ham bu so‘z *hangām* shaklida qo‘llanib, *vaqt, kez* ma’nosini ifodalagan. Xorazmiy tilida *‘y’mk* so‘zi qo‘llangan bo‘lib, *bir marta, bir* ma’nolarini ifodalash uchun istifoda etilgan. Xususan, ushbu so‘z *‘y’mk pc-‘y’mc hy mryn*t[2] iborasida (*u bu qayta-qayta chaqirdi*) *qayta-qayta, takororan* ma’nosini bergan. Shuningdek, xorazmiy tilida *‘nk’m [angām]* so‘zi qo‘llangan bo‘lib, *bayram* ma’nosini ifodalagan. Shuningdek xorazmiy tilida *wxšnk’m* so‘zi qo‘llangan bo‘lib, suv ilohasi Vaxsh yoki aynan Vaxsh daryosining himoyachisi bo‘lgan ilohaga bag‘ishlangan bayram ma’nosini ifodalagan. Ko‘rinib turganidek, ushbu so‘zning ikkinchi qismi *‘nk’m* hangāma asosida paydo bo‘lgan. O‘rta so‘g‘d, moniy, buddaviy va xristianga so‘g‘diyda *ny’m – vaqt, soat, daqiqa, ny’mk – vaqt, ‘ny’w*[3] *– shoshilinch, zo‘riqish,* yag‘nob tilidagi *duyomini – kelasi safar, iyom – bir marta* kabi so‘zlar biz tahlil qilayotgan *han-gāma* yoki *ni-gāma*[4] bilan bog‘lanadi. Bugungi kunda xorazm shevalarida qo‘llanuvchi *ayyom – allaqachon* so‘zi ham biz tahlil qilayotgan *han-gāma,* ayni damda indoyevropa tilidagi *gʷm* o‘zagi bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan.

Qadimgi forsiyda *Ha(n)gmatāna – Hamadon,* xristian so‘g‘diyda *‘y’m* yoki *‘ym – bayram,* osetin tilidagi *ayommæ < a-yom-mæ – arafa, kelishdan oldin* va o‘rta osetindagi *qomyl / yombæl*[5] *– yoshi kata* so‘zlarini ham shu asos bilan bog‘lashimiz mumkin. Fors tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan payt ma’nosidagi *goh* so‘zini ham tahlil qilinayotgan *gâ* yoki *gam* (*gʷm*) o‘zagi bilan bog‘lashimiz mumkin. Chunonchi, xorazmiy tilida *‘yδ*[6] *– vaqt, qulay vaqt* so‘zi *gâ* yoki *gam* (*gʷm*) o‘zagi asosida hosil

[1]Henning W.B. Ein manichiisches Bet – und Beichtbuch. — APAW. 1936, №10 (=Henn. SP I, 417-558). –P. 72, 126.
[2]Henning W.B. A Fragment of Khwarezmian Dictionary. Ed. by D.N.MacKenzie. L,, 1971. –P. 19.
[3]Gharib B. Sogdian Dictionary. Sogdian-Persian-English. Tehran, 1995. –P. 39.
[4]Gershevitch I.A. Grammar of Manichean Sogdian. Oxf., 1954. –P. 175.
[5]Абаев В.И. Историко-этимологический словарь осетинского языка. Т. II. Л., 1973. –С. 308-309.
[6]MacKenzie D.N. The Khwarezmian Glossary. — BSOAS. III — 1971, vol. 34, pt 3. –P. 320.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-96-107

qilingan *ā-gatā* yoki *ā-gati* bilan bog‘lanadi. Xorazmiy tilida qo‘llangan *pknd-‘yd*[1] – *tush vaqti* (o‘rta fors tilida bu mahalni *čašt-gāh* deb nomlaganlar, keyinchalik bu so‘z o‘zbek tiliga ham *chohgoh* tarzida o‘zlashgan) so‘zini ayni asosdan hosil qilinganli haqidagi xulosa mantiqan to‘g‘ri.

Fra-gāma[2] – *bahor* avestizmi, parfiyon tilidagi *rhayåm*[3], *rayām*[4] – *bahor* so‘zlarini ham ayni asosga bog‘liq holda paydo bo‘lganligi haqida fikr yuritish mumkin. Ushbu asos keyinchalik *yurish, borish, o‘tish* kabi harakat nomlarini paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Xususan, qadimgi hindiydagi *gåti – yurish*, “Avesto”dagi *aiwi.gaiti* muannas jinsda *kelish, erishish, kirish* ma’nolarini anglatuvchi so‘zlarni ham shu qatorga kiritish mumkin.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, Ogahiy tarixiy asarlarida keng qo‘llangan, *zamona* umumeroniy o‘zlashmalardan biri bo‘lib, uning genezisi indoyevropa tilidagi harakat qilmoq, qadam tashlamoq, yurmoq, o‘tmoq, o‘tkinchi kabi ma’nolarni ifodalagan *gâ* yoki *gam* (*g^{w}m*) asosi bilan bog‘lanadi. Ushbu asosning tarqalish areali juda keng bo‘lib, u ingliz tilidagi *to go – bormoq*, fors va o‘zbek tillaridagi *goh – vaqt*, fors hamda o‘zbek tillaridagi *ayyom – bayram*, xorazm shevasidagi *ayyom – allaqachon* kabi so‘zlashning paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan.

Otash. O‘t, olov, otishma, o‘t ochish. Eski o‘zbek tiliga fors tilidan o‘zlashgan o‘zlashma. Hozirgi o‘zbek tilida keng qo‘llanadi va quyidagi ma’nolarni ifodalash uchun istifoda etiladi: 1) o‘t, olov: *Odam – ishdan, ma’dan – oatshdan bahra topadi;* 2) ko‘chma ma’noda dilni yondiradigan, o‘rtantiradigan haroratli his-tuyg‘u: *hijron otashi*[5]. Ushbu so‘z hozirgi o‘zbek tilidagi *otasharava, otashdon, otashgoh, otashzabon, otashxona, otashparast, oatshqalb* kabi bir necha so‘zlarning yasalishiga asos vazifasini o‘tagan. Ogahiy tarixiy asarlarida bu so‘zni birmuncha keng qo‘llanganini kuzatdik: *... islom lashkari qarovullarina qorshu kelib, muhoraba amrig‘a ishtig‘ol ko‘rguzub,* ***otashi*** *qitolni ishtiolg‘a kirguzdi va to‘bandozli marosimin jahdi tamom bila kamoyanbag‘iy tuzdi*[6]. Qolaversa, *otash* so‘zi Ogahiy tarixiy asarlarida *otashfishon, otashgoh, otashboz, otashin* kabi so‘zlarning yasalishga asos vazifasini o‘tagan.

Ushbu so‘zning genezisini tahlil qilganda quyidagi xulosalarga keldik: *otash* qadimgi *ātr* yoki *ātar* asosiga bog‘lanadi. Oriyda bu so‘z *āt(h)r, āt(h)ar* shaklida

[1]MacKenzie D.N. Khwarezmian Imperfect Stems. – Mélanges linguistiques offerts à Émile Benveniste. P., 1975. –P. 102.
[2]Morgenstierne G. Report on a Linguistic Mission to Afghanistan. Oslo, 1926. –P. 22.
[3]Morgenstierne G. Indo-Iranian Frontier Languages. Vol. I. — 1929. –P. 284.
[4]Morgenstieme G. An Etymological Vocabulary of Pashto. Oslo, 1927. –P. 89.
[5]O‘zbek tilining izohli lug‘ati. III tom. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006. –B. 153-154.
[6] Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Asarlar. V jild. Jome’u-l-voqeoti sultoniy . Nashrga tayyorlovchi I.Ismoilov. Toshkent: 2021. – B. 60.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-96-107

qo‘llangan bo‘lsa, qadimgi hindiyda *atharĭ* yoki *atharyú* shaklida qo‘llangan. Ular indoyevropa tilidagi *āter* yoki *ātr* o‘zagi asosida paydo bo‘lgan. Qadimgi lotin tilida ham ayni indoyevropa tilidan o‘zlashgan *āter – kuyib ketgan, yongan* ma’nolarini anglatuvchi so‘z mavjud. Bu asosni slavyan tillarida ham uchratish mumkin. Xususan, o‘rta praslavyandagi *atra*, rus tilidagi *vatrushka*[1], bolqon tillar guruhidagi *vatra* va shu o‘zak asosida paydo bo‘lgan bir necha so‘zlarni[2] ham indoyevropa tilidagi *āter* yoki *ātr* bilan bog‘lashimiz mumkin. Indoyevropa tilidagi *āter* yoki *ātr* ***ā*** yoki ***ai***[3] *– yonmoq, nur taratmoq* o‘zagi bilan bog‘lanadi.

“Avesto”ning Gohlarida va pahlaviyda *ātar, ātərə, āðr, ātr*[4] (muzakkar jinsda) *olov* ma’nosini ifodalaydi, birlikda *ātarš* shaklida qo‘llanadi. Qadimgi forsiyda bu so‘z *ātar* yoki *ātr*[5] tarzida, midiya tilida *ātr, āðr* shaklida qo‘llanadi va olov ma’nosida istifoda etiladi. Ushbu so‘zning fonetik taraqqiyotini ikki yo‘nalishda rivojlanganini kuzatish mumkin: chunonchi, birinchi yo‘nalish – *ātar-, ātərə-, āðr-, ātr- āt(u)r* bo‘lsa, ikkinchi yo‘nalish *ātarš-, ātaš-* dir. Birinchi yo‘nalish rivojini quyidagi belgilash mumkin: o‘rta fors tilida dastlabki bosqichda *ātur*[6], keyinchalik *ādur{‘twr}* qadimgi yozma yodgorliklarda *{‘twry}*[7], monaviylik matnlarida {‘*dwry*}[8] shaklida qo‘llangan va *olov ilohasi* ma’nosini ifodalagan. Klassik fors tilida bu so‘zni biz *āðár – olov ilohasi* mazmunida bo‘lsa, hozirgi fors tilida *ázār* 1) olov; 2) Eron quyosh kalendarining 9-oyi; 3) antroponim ma’nolarida istifoda etiladi. Tojik tilidagi *ozar* esa 1) olov; 2) antroponimdir. Ayni asosdan qadimgi hindiydagi *atharyu*, “Avesto”dagi *ātrya,* so‘g‘diydagi *āðr(i)a-ka*[9] asosida *‘š’y*[10]*, ‘š’k [āše]*[11] *– olovga oid, kul, cho‘g‘* so‘zlari ham biz tahlil qilayotgan *ātr* asosida paydo bo‘lgan. Xorazmiy tilidagi *fy’drc < ‘ßy’drk < aby-ātarakā*[12], ya’ni *issiq cho‘g‘da tayyorlangan* iborasida ahm ayni shu o‘zakni uchratish mumkin.

ātar o‘zagining tarqalish areali juda keng. Chunonchi, u “Avesto”dagi *at/ðar-ųan, aûaurvan-, aôaurun-, âùravan-* yoki oriydagi *at(h)aryan,* qadimgi hindiydagi

[1]Этимологический словарь славянских языков. Праславянский лексический фонд. Вып.1 Под ред. О.Н.Трубачева. М., 1974. –С. 91-93.
[2]Pokomy J. Indogermanisches etymologisches Wörterbuch. Bern, 1959. –P. 69.
[3]Szemerényi O. Studies in the Kinship Terminology of the Indo-European Languages, with Special References to Indian, Iranian, Greek and Latin. — Acta Iranica. Troisième série. Text et mémoires. Vol. VII. Varia, 1977. Téhéran-Liège, 1977 (Acta Iranica, 16). –P. 29.
[4]Bartholomae Chr. Vorgeschichte der iranischen Sprachen. — GIPh. Bd. I, Abt. 1. Strassburg. 1895-1901. –P. 10.
[5]Bartholomae Chr. Altiranisches Werterbuch. Strassburg, 1904 (repr.: Berlin-NewYork, 1979). –P. 312-316.
[6]Nyberg H. A Manual of Pahlavi. Pt 2. Glossar. Wiesbaden, 1974. –P. 35.
[7]MacKenzie D.N. A Concise Pahlavi dictionary. –L., 1971. –P. 5.
[8]Boyce M.A. Word-list of Manichaean Persian and Parthian. Téhéran-Liège, 1977 (Acta Iranica, sér. 3, vol. 2, Suppl.). –P. 8.
[9]Gershevitch I.A. Grammar of Manichean Sogdian. Oxf., 1954. –P. 47.
[10]MacKenzie D.N. The Buddhist Sogdian Texts of the British Library. Téhéran-Liège, 1976 (Acta Iranica,10). –P. 75.
[11]Morgenstieme G. Etymological Vocabulary of the Shughni Group. Wiesbaden, 1974. –P. 83.
[12]Benzing J .Chwaresmischer Wortindex (mit einer Einleitung von H.Humbach). Wiesbaden, 1983. –P. 271.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-96-107

átharvan[1] *– ruhoniy, rohib* so‘zlari shu jumladandir, bugungi kunda bu so‘z *otashbon* tarzida fors tilida, ayni damda, Ogahiy tarixiy asarlarida keng qo‘llanadi. Biz bu so‘zni indooriy asosli o‘zlashma[2] *deyishimiz mumkin.* Shuningdek, bu qatorda elam ta’siri ostida paydo bo‘lgan *äûrava-, äðravapati*[3] *– ruhoniy, otashparast* ma’nosidagi so‘zni ham ta’kidlashimiz zarur.

Indoyevra va qadimgi oriyda *ātr-pati* birikmasi mavjud bo‘lib, u olovga topinuvchi yoki *olov egasi* ma’nosini anglatadi. Bu birikmani biz baqtriyda *atarobido* shaklida uchratamiz. Baqtriyda qadimiy *-pati-* asosida joy nomlari (toponim)ni shakllantirish uchun *bido*[4] shakli qo‘llangan. Shu sababdan baqtriydagi *ātu/ar-patkān* bu *olovga topinuvchilar yurti, olov egalari makoni* ma’nosini ifodalaydi. Uning birinchi qismiga e’tibor qaratishni lozim topdik. *ātu/ar* so‘zida intervokal *t* > *ð* ga aylangan va *āðar* shaklini olgan. Keyinchalik umumeroniy *th* > *z* fonetik hodisasi tufayli bu so‘z, yuqorida ta’kidlanganidek, *āzar* tarzida talaffuz etila boshlangan. Hozirgi kunda biz *Ozarbayjon* deb nomlaydigan davlat nomi aslida *olov egalari, olovni muqaddas biluvchilar yurti* ma’nosini anglatadi va ushbu so‘z *ātu/ar-patkān* birikmasining ming yillar davomida fonetik silliqlanib yetib kelgan shaklidir.

Otashdon so‘zining genezisini ham shu yo‘nalishdan borib aniqlashtirish mumkin. Chunonchi, indoyevropa va oriyda *ātr-dāna* birikmasi qo‘llangan bo‘lib, u *olov yoqiladigan joy, o‘choq* ma’nosini anglatgan. Bu birikma keyinchalik qadimgi hindiyda *agni-dhāna* shaklida qo‘llangan. Uning birinchi qismi slavyan tillarida hamon saqlanib kelmoqda. Xususan, rus tilidagi *огонь – olov* shu jumaladandir. *ātr-dāna* ayrim fonetik o‘zgarishlar bilan so‘g‘diy tilida *‘trð’n – olov joyi* shaklida, bajuvda (shug‘non tilining dialektlaridan biri) *arðûn*[5], rushon va xufsda *arðōn,* bartang bartang va roshorvda *arðōn* yoki *raðōn*[6] shaklida qo‘llanadi va *o‘choq* ma’nosini anglatadi.

Garm. Issiq. Eski o‘zbek adabiy tiliga fors tilidan o‘zlashgan. Hozirgi o‘zbek tilida ayni shaklda deyarli qo‘llanmaydi. Faqat garmsel, garma (qovun turi), garmdori, garmiyon[7] (ba’zi uzum turlaridan maxsus usuluda tayyorlangan mayiz) kabi so‘zlar hosil bo‘lishida asos vazifasini o‘tagan holda yashab kelmoqda. Ogahiy tarixiy asarkarida ushbu so‘z anchayin faol qo‘llangan. Chunonchi, “Riyozu-d-davla”da

[1]Mayrhofer M. Etymologisches Wörterbuchdes Altindoarischen. Heidelberg, 1986. –P. 1, 60.
[2]Mayrhofer M. Onomastica Persepolitana. Das altiranische Namengut der Persepolis-täfelchen. Wien, 1973. –P. 122, 132. 132.
[3]Hinz W. Altiranisches Sprachgut den Nebenflberlieferungen. Wiesbaden, 1975. –P. 48, 50.
[4]Davary Gh.Dj. Baktrisch: Ein Wörterbuch auf Grund der Inschriften, Handschriften, Münzen und Siegelsteine. Heidelberg, 1982. –P. 167.
[5]Morgenstieme G. Etymological Vocabulary of the Shughni Group. Wiesbaden, 1974. –P. 15.
[6]Соколова В.С. Генетические отношения язгулямского языка и шугнанской языковой группы. Л., 1967. –С. 43.
[7]O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I tom. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006. –B. 488.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-96-107

o‘qiymiz: *Turfaroq budurkim, bovujudi qish, havo mizoji* ***garm****lik izhor qilib, andoq yog‘ish yog‘dikim, hamul qorni eritib, bir damda mafqudu-l-osor va tog‘ julgalarin bahri zaxxor, balki hazrati Nuh to‘fonin oshkor qildi*[1]. Shuningdek, *garm* Ogahiy tarixiy asarlarida *garmjavlon, garmguftor, sargarm, garmrav* kabi so‘zlarning yasalishida asos vazifasini o‘tagan. Ushbu so‘zning genezisi borasidagi tadqiqotlar quyidagi xulosalarga olib keldi: so‘zning asosi indoyevropa tilidagi *g^{w}her*[2] *– issiq bo‘lmoq, qaynoq, issiq* asosiga borib taqaladi. Keyinchalik ushbu so‘z oriyda *ghar, gar – yonmoq, yoqmoq* shaklida, qadimgi hindiyda *gharma*[3] *– alanga, issiqlik* tarzida qo‘llangan. Indoyevropadagi *g^{w}her* asosida *g^{w}her-mo, g^{w}hor-mo – issiq, g^{w}her-os, g^{w}hor-os – harorat, issiqlik, alanga* so‘zlari paydo bo‘lgan. Keyinchalik bu so‘z butun yevropa tillariga tarqalgan. Xususan, yunon tilidagi *ὕέρομαι – issiqlikka aylanmoq, issiq bo‘lmoq* fe’li, *ὕερμά – qaynoq o‘zan, issiq o‘lkalar* oti, *ὕερμός – issiq, qaynoq* sifati ayni biz tahlil qilayotgan *g^{w}her* asosida paydo bo‘lgan. Qolaversa, qadimgi irland tilidagi *fo-geir – isimoq* fe’li, litva tilidagi *gāras – bug‘,* qadimgi pruss tilidagi *goro*[4] *– issiqlik,* cherkov slavyanidagi *goritь, gorěti – yonmoq; grějǫ, grěti, grьnь, grьnilo, požarъ – olov, alanga;* qadimgi rus tilidagi *гречь, горечь*[5] ayni asos bilan bog‘liqdir.

Umumeroniy *g^{w}her* yoki *g^{w}hormo* o‘zagi asosida oriyda *ghar-ma,* qadimgi hindiyda *gharmá* (muzakkar jinsda) *– quyosh otashi, olov issiqligi, yilning issiq pallasi, kun,* toxar tilidagi *sarme – issiq* so‘zlari paydo bo‘lgan. Shu nuqtayi nazardan, yunon tilidagi *issiq, qaynoq* ma’nosidagi *ὕερμός* so‘zining genezisi ham mantiqan oydinlashadi. Hozirgi kunda yevropa tillari, xususan, nemis tilidagi *warm – iliq, issiq,* ingliz tilidagi *warm – issiq, iliq, iliq o‘lka,* qadimgi pruss tilidagi *gorme – issiqlik,* rus tilida ham keng qo‘llanuvchi *термос, жар (жара)* so‘zlari ayni qadimgi yunon tili tranzitligi asosida tarqalgan va u umumeroniy *g^{w}her* asosida yuzaga kelgan.

“Avesto”da qo‘llangan *garəma*[6]*– issiq, qaynoq* so‘zi, qadimgi forsiydagi *garma*[7] *garma*[7] *– issiqlik, alanga* so‘zlari mavjud bo‘lib, ular *garma-pada*[8] birikmasi hosil qilinishida ishtirok etgan va bu birikma yilning eng issiq oylari iyun-iyul nomi sifatida *alanga yeri* ma’nosida qo‘llangan. O‘rta fors tilidagi *garm – issiq, qaynoq,* monaviy matnlardagi *grm*[9] *– issiq,* klassik fors tilidagi *garm*[1] *–issiq, qaynoq, iliq,* belujiydagi

[1]Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Asarlar. IV jild. Riyozu-d-davla. Nashrga tayyorlovchi A.O‘rozboyev. Toshkent: 2020. – B. 287.
[2]Mayrhofer M. Etymologisches Wörterbuchdes Altindoarischen. Heidelberg, 1986. –P. 7, 513.
[3]Bailey H.W. Dictionary of Khotan Saka. Cambridge-London-New York-Melbourne, 1979. –P. 81.
[4]Pokomy J. Indogermanisches etymologisches Wörterbuch. Bern, 1959. –P. 493-495.
[5]Mayrhofer M. Etymologisches Wörterbuchdes Altindoarischen. Heidelberg, 1986. –P. 7, 513.
[6]Соколов С.Н. Язык Авесты (учебное пособие). Л., 1964. –С. 246.
[7]Kent R. Old Persian (Grammar, Texts, Lexicon). New Haven, 1950 (2nd ed., 1953). –P. 183.
[8]Brandenstein W., Mayrhofer M. Handbuch des Altpersischen. Wiesbaden, 1964. –P. 120-121.
[9]Boyce M.A. Word-list of Manichaean Persian and Parthian. Téhéran-Liège, 1977 (Acta Iranica, sér. 3, vol. 2, Suppl.). – P. 42.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-96-107

garm[2] - *issiq, iliq,* kurdiy, kurmonjiy va so‘rxiydagi *garm*[3] *–issiq, qaynoq, qayta tirilgan,* so‘g‘diydagi *yrm*[4] *[yarm] – issiq, qaynoq,* xorazmiy tilidagi *yrm [yrmnd – so‘zi asosi] – issiq, alanga,* xorazmiy tilidagi *cwb yrmncy*[5] *–issiq suv* so‘z birikmasida, osetin tilidagi *qærm / yar(m) – issiq, qærm k*[6] *– yonmoq* so‘z birikmasida biz ayni tahlil qilinayotgan *garm*ni turli ma’nolarda va turli fonetik qobiqda uchratamiz. Yuqoridagi ushbu tahlillar *garm* umumeroniy asos ekanligi va bugungi kunda barcha eroniy tillarda, qolaversa, barcha yevropa tillarida ma’lum ma’no taraqqiyotini bosib o‘tgan holda, so‘z yoki komponent shaklida, turli fonetik o‘zgarishlarga uchrab yashab kelayotganini ko‘rsatadi.

XULOSA

Ushbu tahlillardan shunday xulosa kelib chiqadi, umumeroniy leksik qatlamga oid birliklar eski o‘zbek adabiy tili davrida juda faol o‘zlashgan va badiiy adabiyotda keng o‘rin egallay boshlagan. Chunonchi, Ogahiy tarixiy asarlari lug‘at qatlamida ham umumeroniy qatlamga oid o‘zlashmalarni ko‘plab uchratish mumkin. Ularni qo‘llashda ijodkor har bir so‘zning ma’no qirralarini nozik his qilgan va ularga tarixiy asarda shu qirralardan kelib chiqqan holda inja ma’no yuklagan. Bunday hollar, albatta, ijodkorning yuksak did hamda o‘ta mukammal iste’dod egasi va hassosligidan darak berishi shubhasiz.

REFERENCES

1. Bailey H.W. Dictionary of Khotan Saka. Cambridge-London-New York-Melbourne, 1979.
2. Bartholomae Chr. Altiranisches Werterbuch. Strassburg, 1904 (repr.: Berlin-NewYork, 1979).
3. Bartholomae Chr. Vorgeschichte der iranischen Sprachen. — GIPh. Bd. I, Abt. 1. Strassburg. 1895-1901.
4. Benzing J .Chwaresmischer Wortindex (mit einer Einleitung von H.Humbach). Wiesbaden, 1983.
5. Boyce M.A. Word-list of Manichaean Persian and Parthian. Téhéran-Liège, 1977 (Acta Iranica, sér. 3, vol. 2, Suppl.).
6. Brandenstein W., Mayrhofer M. Handbuch des Altpersischen. Wiesbaden, 1964.

[1]Horn P. Grundriss der neupersischen Etymologie. Strassburg, 1893. –P. 203.
[2]Geiger W. Etymologie des Balüci. — ABAW. 1890, Bd. 19, Abt. 1. –P. 122.
[3]Цаболов Р.Л. Этимологический словарь курдского языка. Т. I. (А-М). М., 2001. –С. 370-371.
[4]Gershevitch I.A. Grammar of Manichean Sogdian. Oxf., 1954. –P. 80., Gharib B. Sogdian Dictionary. Sogdian-Persian-English. Tehran, 1995. –P. 39.
[5]Humbach H. Choresmian. — CLI. Wiesbaden, 1989. –P. 198.
[6]Абаев В.И. Историко-этимологический словарь осетинского языка. Т. II. Л., 1973. –С. 266-267.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-96-107

7. Davary Gh.Dj. Baktrisch: Ein Wörterbuch auf Grund der Inschriften, Handschriften, Münzen und Siegelsteine. Heidelberg, 1982.
8. Geiger W. Etymologie des Balüci. — ABAW. 1890, Bd. 19, Abt. 1.
9. Gershevitch I.A. Grammar of Manichean Sogdian. Oxf., 1954.
10. Gharib B. Sogdian Dictionary. Sogdian-Persian-English. Tehran, 1995.
11. Henning W.B. A Fragment of Khwarezmian Dictionary. Ed. by D.N.MacKenzie. L,, 1971.
12. Henning W.B. Ein manichiisches Bet – und Beichtbuch. — APAW. 1936, №10 (=Henn. SP I, 417-558).
13. Hinz W. Altiranisches Sprachgut den Nebenflberlieferungen. Wiesbaden, 1975.
14. Horn P. Grundriss der neupersischen Etymologie. Strassburg, 1893.
15. Humbach H. Choresmian. — CLI. Wiesbaden, 1989.
16. Kent R. Old Persian (Grammar, Texts, Lexicon). New Haven, 1950 (2nd ed., 1953).
17. MacKenzie D.N. A Concise Pahlavi Dictionary. L., 1971.
18. MacKenzie D.N. Khwarezmian Imperfect Stems. – Mélanges linguistiques offerts à Émile Benveniste. P., 1975.
19. MacKenzie D.N. The Buddhist Sogdian Texts of the British Library. Téhéran-Liège, 1976 (Acta Iranica,10).
20. MacKenzie D.N. The Khwarezmian Glossary. — BSOAS. III — 1971, vol. 34, pt 3.
21. Mayrhofer M. Etymologisches Wörterbuchdes Altindoarischen. Heidelberg, 1986.
22. Mayrhofer M. Kurzgefaßtes etymologisches Wörterbuchdes Altindischen. Heidelberg, 1953-1975.
23. Mayrhofer M. Onomastica Persepolitana. Das altiranische Namengut der Persepolis-täfelchen. Wien, 1973.
24. Morgenstieme G. An Etymological Vocabulary of Pashto. Oslo, 1927.
25. Morgenstieme G. Etymological Vocabulary of the Shughni Group. Wiesbaden, 1974.
26. Morgenstierne G. Indo-Iranian Frontier Languages. Vol. I. — 1929.
27. Morgenstierne G. Noteson Balochi Etymology. — NTS. 1932, Bd. V.
28. Morgenstierne G. Report on a Linguistic Mission to Afghanistan. Oslo, 1926.
29. Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Asarlar. IV jild. Riyozu-d-davla. Nashrga tayyorlovchi A.O‘rozboyev. Toshkent: 2020.
30. Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Asarlar. V jild. Jome’u-l-voqeoti sultoniy . Nashrga tayyorlovchi I.Ismoilov. Toshkent: 2021.
31. Nyberg H. A Manual of Pahlavi. Pt 2. Glossar. Wiesbaden, 1974.
32. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I tom. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006.
33. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II tom. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006.
34. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. III tom. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006.
35. Pokomy J. Indogermanisches etymologisches Wörterbuch. Bern, 1959.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-96-107

36. Sims-Williams N. Eastern Middle Iranian (p.165-172), Sogdian (p.173-192), Bactrian (p.230-235). CLI. Wiesbaden, 1989.
37. Szemerényi O. Studies in the Kinship Terminology of the Indo-European Languages, with Special References to Indian, Iranian, Greek and Latin. — Acta Iranica. Troisième série. Text et mémoires. Vol. VII. Varia, 1977. Téhéran-Liège, 1977 (Acta Iranica, 16).
38. Абаев В.И. Историко-этимологический словарь осетинского языка. Т. I. М. – Л., 1958.
39. Абаев В.И. Историко-этимологический словарь осетинского языка. Т. II. Л., 1973.
40. Жуковский В.А. Материалы для изучения персидских наречий. Ч. II, вып. 1-2. Пг., 1922.
41. Жуковский В.А. Материалы для изучения персидских наречий. Ч. I. СПб., 1888.
42. Жуковский В.А. Материалы для изучения персидских наречий. Ч. III. Пг., 1922.
43. Расторгуева В.С., Эдельман Д.И. Этимологический словарь иранских языков. Том I. М. Восточная литература. 2003.
44. Соколов С.Н. Язык Авесты (учебное пособие). Л., 1964.
45. Соколова В.С. Генетические отношения язгулямского языка и шугнанской языковой группы. Л., 1967.
46. Стеблин-Каменский И.М. Историческая фонетика ваханского языка. КД. Л., 1971.
47. Стеблин-Каменский И.М. Этимологический словарь ваханского языка. СПб., 1999.
48. Хромов А.Л. Ягнобский язык. — ОИЯ. Новоиранские языки. Восточная группа. М., 1987.
49. Цаболов Р.Л. Этимологический словарь курдского языка. Т. I. (А-М). М., 2001.
50. Этимологический словарь славянских языков. Праславянский лексический фонд. Вып.1 Под ред. О.Н.Трубачева. М., 1974.
51. شمس الدين محمد بن خلف تبريزى . برهان قاطع. با اهتمام دكتر محمد معين. تهران. امير كبير. ١٣٨٦ . در جلد اوّل ص. ١٧٥ .